2019 yil
yanvar-mart

# Qoraqalpog'ston Respublikasi statistika boshqarmasi

## *2019 yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar*

Joriy davrda 1328,8 mlrd sóm asosiy kapitalga investitsiyalar ózlashtirilib, ularning 69,1 %i yoki 918,4 mlrd. so`m jalb etilgan mablag`lar hisobidan moliyalashtirilgan bólsa, korxona va tashkilotlarning o`z mablag`lari hisobidan 30,9 %i yoki 410,1 mlrd. so`m moliyalashtirildi.

***O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 136,3 foizni tashkil etdi***

**Markazlashtirilgan mablag'lar hisobiga: 918,4mlrd.so'm**

**O'z mablag'lari hisobidan: 410,4 mlrd. so'm**

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1328,8 mlrd. So'mni tashkil etdi**

## *Asosiy kapitalga investitsiyalar*

Hisobot davrida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalariga 646,7 mlrd. investitsion mablag' yoki jami investitsiyalarning 48,7% ni tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan deyarli 10,4 marta ko'pdir. Hisobot davrida markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 682,1 mlrd. so'm o`zlashtirildi va 2018 yilga nisbatan 22,8% punktga oshdi.

Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobiga 212,5 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar jalb qilindi yoki jami investitsiyalarning 16,0% o'zlashtirildi. Aholining mablag'lari hisobidan 197,9 milliard so'm investitsiyalar, yoki 14,9% investitsiyalar o'zlashtirildi.

Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 354,9 mlrd. so'mlik xorijiy kreditlar ajratildi bu esa 2018 yilga nisbatan 8,7 marta ko'pdir yoki jami investitsiyalarning 26,7% ini tashkil etadi.

Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 196,9 mlrd. so'mni tashkil etdi (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 14,8% ni tashkil etdi), bu o'tgan yilga nisbatan, 4,1 foiz punktga oshdi, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 74,8 mlrd (5,6% va 50,7% ga o`tgan yilning shu davriga nisbatan oshdi), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan – 94,2 mlrd. so'm (7,1%ni tashkil qildi), Respublika byudjetidan - 188,7 mlrd. so'm (14,2%ga kópaygan, 8,8 barobarga oshgan), suv ta'minoti tizimini rivojlantirish jamǵarmasi -1,3 mlrd. so'm (0,1%) va Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasidan – 7,6 mlrd. so'mni yoki asosiy vositalar bo'yicha jami investitsiyalarning 0,6% ni tashkil etdi.

# *Asosiy kapitalga investitsiyalar*

ó



# *Asosiy kapitalga investitsiyalar*



# *Asosiy kapitalga investitsiyalar*

## Mulkchilik shakllari bo`yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning ulushi

(foizda)




Hisobot davrida asosiy kapitalga nodavlat mulki asosida kiritilgan investitsiyalar hajmi o'tgan yilga nisbatan 12,8%ga oshdi.

| | mlrd. so'm | O'sish sur'ati % | Umumiy hajmga nisbatan % da |
|---|---|---|---|
| **Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan:** | **1328,8** | **136,3** | **100,0** |
| **Respublika byudjeti** | 188,7 | 8,8m | 14,2 |
| **Suv ta'minoti tizimini rivojlantirish jamg'armalari** | 1,3 | - | 0,1 |
| **Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi** | 7,6 | - | 0,6 |
| **Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi** | 94,2 | - | 7,1 |
| **O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari** | 354,9 | 8,7m | 26,7 |
| **Korxona mablag'lari** | 212,5 | 64,4 | 16,0 |
| **Tijorat banklaridan kreditlar va boshqalar qarz mablag'lari** | 196,9 | 102,1 | 14,8 |
| **To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar** | 74,8 | 49,3 | 5,6 |
| **Aholi mablag'lari** | 197,9 | 93,2 | 14,9 |

Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atlari O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar bo'yicha - o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,7 martaga, shuningdek Tiklanish va rivojlantirish jamg'armasiga 94,2 martaga oshgan. Bu Taxiatosh issiqlik elektr stansiyasida yirik investitsion loyiha - har biri 230-280 MVt quvvatga ega ikkita gaz-bu`lovchi uskunalarning qurilishi bilan bog'liq. Respublika byudjeti mablaǵidan ózlashtirilgan investitsiyalar hajmining ósish sur`ati 8.8 martaga oshgan. Davlat mablaǵlarining 50%dan ortiǵi Tórtkul tumanidagi quvvati 2100 mln.kub.metr bólgan "Shórbuloq" suv saqlagichi qurilishiga yónaltirildi. Bundan tashqari 17,8 foiz mablaǵ ijtimoiy soha ob`ektlarining qurilishiga yónaltirilgan.

# Tumanlar kesimida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (mlrd. so'm)

| | Investitsiya asosiy kapital mlrd. so'mni tashkil etdi | shu jumladan tumanlar tomonidan: | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Respublika byudjeti | Korxonalar va tashkilotlar mablag'lari | Aholi mablag'lari | Xorijiy investitsiyalar va kreditlar | Davlat maqsadli jamg'armalari | Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi | Qayta qurish va rivojlantirish jamg'armasi | Tijorat banklaridan kreditlar va boshqa qarz mablag'lari |
| **Qoraqalpog'iston Respublikasi** | 1328,8 | 188,7 | 212,5 | 197,9 | 429,7 | 1,3 | 7,6 | 94,2 | 196,9 |
| shu jumladan: | | | | | | | | | |
| Amudaryo | 58,8 | 1,1 | 28,3 | 17,6 | 0,6 | 1,3 | - | - | 9,9 |
| Beruniy | 43,0 | 0,1 | 3,1 | 23,6 | 0,4 | - | - | - | 15,8 |
| Qorao'zak | 34,1 | 2,2 | 4,6 | 3,4 | 0,1 | - | - | - | 23,8 |
| Kegeyli | 21,2 | 1,3 | 4,0 | 7,9 | 1,6 | - | - | - | 6,4 |
| Qo'ng'irod | 136,7 | 1,0 | 60,0 | 12,9 | 52,9 | - | - | - | 9,9 |
| Qonliko'l | 15,4 | 2,1 | 1,6 | 6,9 | 0,1 | - | - | - | 4,7 |
| Mo'ynoq | 49,6 | 3,4 | 19,5 | 12,0 | 0,1 | - | 7,6 | - | 7,0 |
| Nukus tumani | 39,5 | 7,2 | 2,1 | 17,5 | 0,6 | - | - | - | 12,1 |
| Taxiatosh | 459,1 | 2,5 | 8,7 | 6,2 | 343,6 | - | - | 94,2 | 3,9 |
| Taxtako'pir | 13,7 | 0,8 | 3,9 | 3,2 | 3,5 | - | - | - | 2,3 |
| To'rtko'l | 128,2 | 106,7 | 2,5 | 9,7 | 0,7 | - | - | - | 8,6 |
| Xo'jayli | 36,7 | 0,9 | 5,7 | 26,2 | 0,5 | - | - | - | 3,4 |
| Chimboy | 18,6 | 1,3 | 3,4 | 6,9 | 5,9 | - | - | - | 1,1 |
| Shumanoy | 14,2 | 2,0 | 1,9 | 4,6 | 1,3 | - | - | - | 4,4 |
| Ellikqal'a | **57,7** | **2,9** | **5,1** | **7,4** | **17,7** | **-** | **-** | **-** | **24,**6 |
| Nukus shahri | 202,3 | 53,2 | 58,1 | 31,9 | 0,1 | - | - | - | 59,0 |

# *Asosiy kapitalga investitsiyalar*

| Tumanlar va shaharlar nomlari | Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi, milliard so'mda | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlari,% |
|---|---|---|
| **Qoraqalpog'iston Respublikasi** | **1328,8** | **136,3** |
| Amudaryo | **58,8** | **117,7** |
| Beruniy | **43,0** | **159,4** |
| Qorao’zak | **34,1** | **112,8** |
| Kegeyli | **21,2** | **130,0** |
| Qo’ng’irod | **136,7** | **44,6** |
| Qonliko’l | **15,4** | **113,4** |
| Mo'ynoq | **49,6** | **195,3** |
| Nukus tumani | **39,5** | **205,9** |
| Taxiatosh | **459,1** | **1657,6** |
| Taxtako’pir | **13,7** | **103,1** |
| To'rtko'l | **128,2** | **467,2** |
| Xo’jayli | **36,7** | **139,4** |
| Chimboy | **18,6** | **101,7** |
| Shumanoy | **14,2** | **123,8** |
| Ellikqal’a | **57,7** | **111,9** |
| Nukus shahri | **202,3** | **65,7** |

# *Asosiy kapitalga investitsiyalar*

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yo`qori o'sish sur'atlari Taxiatosh tumanida kuzatildi - o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,6 martaga ko'p. Bu Taxiatash issiqlik elektr stansiyasida ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish bo'yicha yirik loyihani amalga oshirishga bog'liq. To'rtko'l tumanida ushbu ko'rsatkich 4.7 barobar oshdi, bu hisobot davrida ijtimoiy ob'ektlarni qurish va rekonstruktsiyalash bilan bog`liq, bundan tashqari, Nukus tumanida yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi – 205,9 foiz, bu esa yangi tsellyulozani qayta ishlash korxonasini qurish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga yuz beradi. Móynoq tumanida o'sish sur'ati 195,3 foizni tashkil etdi va bu jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga  7,6 mlrd.sóm yopiq suzish havzasi qurilishi va boshqa sport ob`ektlarinin barpo etishga móljallangan. Bundan tashqari korxona mablaǵlari va mahalliy byudjet hisobidan ijtimoiy infrostruktura ob`ektlarinin qurishga ,  uy–joy va maktabgacha ta`lim muassasalari qurilishiga yónaltirildi, Beruniy tumanida investitsiya ózlashtirilishining ósish sur`ati 159,4 foizni tashkil etdi, ushbu tumanda yangi sement ishlab chiqarish korxonasi uchun kerak bolgan mashina va uskunalar sotib olish uchun tóǵridan tóǵri chet el investitsiya va bank kreditlari hisobidan mablaǵlar ózlashtirildi. O`sish sur`atining ótgan yilga nisbatan   past kórsatkichi Nukus shahrida  -65,7% va Qónǵirot tumaniga -44,6%kuzatilmoqda, bu es ótgan yildagi yirik investitsion loyihalar bilan boǵliq.

Asosiy kapitalga investitsiyalar tumanlar aro tahlil qilinganda 34,6 % Taxiatosh tumaniga, 15,2 % Nukus shahriga, 10,2% Qónǵirot tumaniga va 9,6% Tórtkul tumaniga tóǵri keladi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalar



## *Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik*




Qoraqalpog'iston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari uchun 598,4 mlrd. so'm ajratildi, bu asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 45,0% ini tashkil etdi, mashina, asbob-uskuna va inventarlarni harid qilish uchun yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 661,8 mlrd. so'mni tashkil etdi (asosiy kapitalga umumiy investitsiyalardagi ulushi 49,8%) va boshqa xarajatlar – 68,6 mlrd. so'mni (5,2%).

## *Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi*




Texnologik tarkibi bo'yicha hisobot davrida qurilish-montaj ishlariga yo'naltirilgan investitsiyalar o'tgan yilga nisbatan 22,5%ga kamaydi, mashina va uskunalar sotib olish uchun 25,2%ga oshdi, boshqa xarajatlarga yo'naltirilgan investitsiyalar 2,7%ga kamaydi.

***Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga yo`naltirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi***




Hisobot davrida asosiy fondlarga kiritilgan investitsiyalarning ko'p qismi mavjud ob'ektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya va texnik jihatdan qayta jihozlashga qaratilgan bo'lib, 968,4 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmining 72,9% ni tashkil etdi. Yangi qurilishga kiritilgan investitsiyalar hajmi 133,8 mlrd. so'mni tashkil etdi, bu 10,1% ni, qolgan 17,0% yoki 226,6 mlrd. so'mni boshqa sohalarga yo'naltirildi

## *Asosiy kapitalga investitsiyalar*

***Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga yo`naltirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi***




Joriy yil boshidan kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya va texnik qayta qurollantirish bo'yicha investitsiyalar o'tgan yilga nisbatan 1,0%ga kamdir. Yangi qurilishda investitsiyalar hajmi 0,5%ga, boshqa sohalarda esa ótgan yilga nisbatan 0,5%ga kamaydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

(jamiga nisbatan %da)




Hisobot davrida elektr energiyasi va gaz ta'minoti 435,6 mlrd. so'mga yoki umumiy investitsiyalar hajmining 32,8%iga to'g'ri keldi.

Tog'-kon sanoati tarmog'ida 222,9 mlrd.so'm yoki umumiy investitsiyalarning 16,8% o'zlashtirilib, shundan 108,6 mlrd.so'm yoki jami investitsiyalarning 8,2% tabiiy gazni qazib olishga (yangi quduqlarning ishga tushirilishi).

## *Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar*

*(jamiga nisbatan, %da)*




Jalb etilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning 78,7%i elektr energiyasini va gaz yetkazib berish faoliyat turiga to`g`ri keldi va 12,3%i tog` -kon sanoati faoliyat turiga o`zlashtirildi.




Joriy davrda asosiy kapitalga o`zlashtirilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki: Taxiatosh tumanida (6298,2 ming so'm), Mo'ynoq tumanida (1584,0 ming so'm), Qo'ng'irot tumanida (1064,1 ming so'm)ni tashkil qildi. Jami Qoraqalpog'iston Respublikasi bo`yicha ushbu ko`rsatkich 709,6 ming so'mni tashkil etdi.

# *Ijtimoiy soha ob'ektlari*

Kasalxonalar, ambulatoriya-poliklinika, qishloq vrachlik punktlari va boshqa tibbiy muassasalarni qurish va kapital rekonstruksiya qilish uchun 15,8 mlrd. so'm investitsiyalar kiritildi, sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan investitsiyalarning 65,0% tashkil etdi. Ularning 15,4 mlrd. so'mi yangi qurilishga, 362,9 mln.sómi esa mavjud tashkilotlarni rekonstruksiya qilishga yo'naltirildi.

Ta'lim sohasini yanada takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida yóqori óquv órinlari ob`yektlari qurilishiga 3,2 mlrd sóm investitsiya, jami investitsiyalar umumiy ta'lim muassasalarini (shu jumladan, maktabgacha ta'lim muassasalarini) va ixtisoslashtirilgan maktablarni qurish va rekonstruktsiya qilish uchun 7,9 mlrd.sóm foydalanildi yoki ta'limdagi investitsiyalarning 32,1% ni tashkil etdi. Ularning 4,4 mlrd. so'mi yangi qurilishqa o'zlashtirilgan, 3,5 mlrd. so'mi esa rekonstruktsiya qilish ushun yo`naltirilgan.




Yoqori oquv orinlari obyektlari uchun - 3,2 mlrd. so'm



o'rta va maxsus maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari ushun - 7,9 mlrd. so`m




shifoxona, poliklinika, qishloq vrachlik punktlari va boshqa tibbiyot muassasalari ushun - 15,8 mlrd. so`m




***Qoraqalpog'iston Respublikasi***
***Statistika boshqarmasi***
***Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi***

***Nashr uchun mas'ul: Z.Seytimbetova***
***Telefon:  (861) 222-75-91***